



## KREDIT MUNOSABATLARINING MAZMUNI VA UNI TASHKIL QILISH XUSUSIYATLARI

**Maxmudov N.K.**

*Denov tumani Shahrinav MFY raisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kredit tushunchasi, bozor munosabatlarini rivojlantirishda moliya, bank-kredit tizimlari ularning yanada takomillashtirish yuzasidan aniq ilmiy ma'lumotlar keltirib yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** bank, byudjet, iqtisodiyot, kredit, modernizatsiya, moliya, mablag', tijorat, qarz.

### СОДЕРЖАНИЕ КРЕДИТНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ХАРАКТЕРИСТИКА ЕГО ОРГАНИЗАЦИИ

**Махмудов Н.К.**

*Председатель махалле Шахринав Денаусского района*

**Аннотация:** В данной статье с предоставлением конкретной научной информации раскрываются понятия кредита, финансов в развитии рыночных отношений, банковско-кредитных систем, а также их дальнейшее совершенствование.

**Ключевые слова:** банковское дело, бюджет, экономика, кредит, модернизация, финансы, фондирование, коммерция, долг.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida mamlakatimizdagi bank tizimining o'rni katta. Chunki, tijorat banklari kredit operatsiyalari bank daromadlarining asosiy qismini tashkil qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida



tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, xizmat ko‘rsatishni yanada takomillashtirish va ishlarni bajarishda bank-kredit tizimining roli kattadir. Bozor munosabatlarini rivojlantirishda moliya, bank-kredit tizimlari bilan bog‘liq masalalarga e’tibor qaratish, bank-kredit tizimini rivojlantirish hamda bank-kredit qonunchiligini isloh etib borish zarur.

Kredit yuridik va jismoniy shaxslarning bo‘sh turgan mablag‘larini kredit resurslariga jalb etish, ularni qaytarish va foizlar to‘lash sharti bilan foydalanuvchilarga berish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos moliyaviy munosabatlar majmuidir. Kredit (lat. creditum – ccuda) – pul yoki tovarlarni, odatda, foizlar to‘lab, qaytarish sharti bilan berish bo‘lib, kreditor bilan qarz oluvchi o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

**Kreditor** kredit munosabatlari qatnashchilaridan biri bo‘lib, ssuda beruvchi sub’ekt sifatida ishtirok etadi. U qarz oluvchi uning foydasiga muayyan harakatlarni amalga oshirishi, masalan, mulkni berishi, pul to‘lashi lozim bo‘lgan u yoki bu majburiyatning tomonidir<sup>1</sup>.

**Qarz oluvchi** - kredit munosabatlari sub’ektlaridan biri bo‘lib, vaqtincha qarzga olingan mablag‘larning qaytarilishini kafolatlaydi. Qarzni qaytarishdan tashqari, odatda, qarzdor ssudadan foydalangani uchun kreditorga foiz to‘laydi.

Kreditlar o‘zining mazmuniga ko‘ra davlat krediti va bank kreditiga bo‘linadi<sup>2</sup>.

Davlat krediti vaqtincha davlat tasarrufiga tushadigan va iqtisodiyotni rivojlantirish, byudjet taqchilligi va boshqa ehtiyojlarning ustuvor yo‘nalishlarini moliyalashtirishtirish uchun foydalaniladigan qo‘srimcha pul mablag‘larining to‘planishini ta’minlaydi. Davlat kreditida davlat - qarz oluvchi, yuridik va jismoniy shaxslar esa - qarz beruvchi (kreditor)lar sifatida namoyon bo‘ladi. Davlat krediti

<sup>1</sup> Экономика, банк. Толковый словарь. Отв. ред. Х.Минхаджиддин. – Т: Издательство «Минхож», 1996. – С. 20.

<sup>2</sup> Виктор Андреевич Москвин. Банковский кредит: его виды и классификация //Учебник.-М.:Форум:ИНФРА-М, 2006.- с 11



vositasida yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘larini jalb etish turli shakllarda, avvalambor davlat zayomlari, pul majburiyatlari va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va ularni joylashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bozor munosabatlari rivojlanishi va qimmatli qog‘ozlar bozorining yuzaga kelishi sharoitlarida davlat kreditining muhim shakli yuridik shaxslar orasida joylashtiriladigan davlat qisqa muddatli zayomlari hisoblanadi.

Bank krediti kreditning asosiy shakli bo‘lib, bunda pul mablag‘lari vaqtincha ishlatilish uchun banklar tomonidan taqdim etiladi. Hozirgi vaqtda bank tomonidan kreditlashning ob’ektlari va sohalari tubdan o‘zgardi. Faqat davlat mulki hisoblangan banklar tomonidan amalga oshirilgan sobiq sovet bank kreditlash tizimidan farqli ravishda, hozirgi vaqtda bunday kreditlash huquqi mulkchilikning turli shakllaridagi tijorat banklariga berilgan.

Davlat kreditida kredit munosabatlari sub’ektlari, bir tomonidan - davlat, ikkinchi tomonidan - yuridik va jismoniy shaxslar bo‘ladi. Bunda davlat ushbu munosabatlarda ko‘rsatilgan sub’ektlarning vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini qarzga oluvchi sifatida qatnashadi.

Davlat krediti asosidagi muddatlichkeit, qaytarishlik va maqsadga muvofiqlik tamoyillari har qanday kredit munosabatlari, shu jumladan bank krediti uchun ham xos bo‘lgan xususiyatlardir. Shu bilan birga, davlat krediti bilan bank krediti o‘rtasida katta farqlar, avvalambor, o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha farqlar mavjud. Davlat krediti bo‘yicha munosabatlarda hamma vaqt davlat yuqori turadi. Ushbu munosabatlarda davlat qarz oluvchi (qarzdor) bo‘lib, bir tomonlama tartibda kredit shartlari (masalan, qarzning muddati, u bo‘yicha daromadlarni to‘lash tartibi va shartlari)ni belgilaydi. Boshqacha aytganda, bu munosabatlarda tomonlar tengligi yo‘q, shu boisdan ular moliyaviy-huquqiy tartibga solish ob’ekti hisoblanadi. Bank kreditida tomonlar teng huquqlarga ega bo‘lib, ularning munosabatlari bank krediti shartnomasi bilan tartibga solinadi va muvofiq ravishda fuqarolik huquqi me’yorlari bilan tartibga solinadi. Boshqa farqli belgi shundan iboratki, davlat kreditida uzoq



muddatli qarzlarni bank krediti bo‘yicha uzoq muddatli shartnomani tuzish vaqtida majburiy shart hisoblangan biror-bir kafolat bilan ta’minlash nazarda tutilmagan.<sup>3</sup>

Banklarning asosiy faoliyat turidan biri hisoblangan kredit ajratish bo‘yicha qaror bankning vakolat doirasiga qarab boshqaruvi organlari tomonidan hal etiladi. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 22-moddasiga asosan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, bank kengashi va boshqaruvi bankning boshqaruvi organlari hisoblanadi. Kreditlash jarayonida banklar bankka aloqador bo‘lgan shaxslar bilan hamda yirik bitimlar tuzish bilan bog‘liq qoidalar muhim ahamiyatga ega. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 26-moddasiga asosan banklarning o‘ziga aloqador bo‘lgan shaxslar bilan yoki ular nomidan tuzadigan shartnomalari o‘ziga aloqador bo‘lmagan shaxslar bilan tuzadigan shartnomalarga qaraganda ancha qulay shartlarga asoslansa, ularning bunday shartnomalarni tuzishi ta’qilanganadi.

Markaziy

bank bankka aloqador bo‘lgan shaxslar bilan bitimlar tuzish, jumladan ularga kreditlar ajratish yuzasidan cheklovlar belgilaydi.

Quyidagi shaxslar:

- bankning mansabdor shaxsi, jumladan bank kengashining a’zosi, shu bankning boshqa xodimlari, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari;
- ustav kapitalining qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan ortiq qismiga egalik qilib turgan bank aksiyadorlari;
- ustav kapitalining qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan ortiq qismiga egalik qilib turgan aksiyador yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari;
- bank yuridik shaxslarning qatnashchisi bo‘lib, ularning ustav kapitalidagi ulushi o‘n foizdan ortiq bo‘lsa, mazkur yuridik shaxslar, ularning mansabdor

<sup>3</sup> Дарслик// Н.И.Химичева таҳрири остида. – М.:БЕК, 1996. – 344-б.



shaxslari va bu shaxslarning yaqin qarindoshlari bank bilan aloqador shaxslar deb hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan shaxslarning biri bilan aloqador bo‘lgan shaxs ularning har biri bilan aloqador deb hisoblanadi.

Bank bilan aloqador shaxsga kredit, shuningdek bank bilan aloqador shaxs uchun kafolatlar ushbu modda talablarini hisobga olgan holda bank kengashining qaroriga ko‘ra berilishi mumkin.

Bankka aloqador bo‘lgan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi batafsil “Banklar va ularga aloqador shaxslar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalar to‘g‘risida Nizom”da belgilangan. Ushbu Nizomning 3.2-bandiga asosan bankning barcha aloqador shaxslarga bergen kreditlarining umumiyligi summasi bankning birinchi darajali (asosiy) kapitalining 100 foizidan oshmasligi kerak.

### **Adabiyotlar**

1. Экономика, банк. Толковый словарь. Отв. ред. Х.Минхаджиддин. – Т: Издательство «Минхож», 1996. – С. 20.
2. Виктор Андреевич Москвин. Банковский кредит: его виды и классификация //Учебник.-М.:Форум:ИНФРА-М, 2006.- с 11
3. Дарслик// Н.И.Химичева таҳрири остида. – М.:БЕК, 1996. – 344-6.